

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«Servis va turizm» fakulteti

«Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrası

«Himoyaga tavsiya etildi»
“Xalqaro turizm va turizm
servisi” kafedrası mudiri,
i.f.n. R.S.Amriddinova

Bayonnoma № 10 2014 y. 26 may

**5811700 - «Turizm va mehmonxona xo‘jaligi servisi»
*ta’lim yo‘nalishi***

**TMS-110 guruh talabasi Mustafaqulov Sanjarning
“Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda Amir Temur davri
yodgorliklaridan foydalanishni takomillashtirish
(Samarqand viloyati misolida)” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar assistent Abduhamidov S.A.

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

Kirish

1-bob Mintaqaviy turizm va uni rivojlantirishning nazariy asoslari

- 1.1 Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning ob'ektiv zarurati
- 1.2 Mintaqaviy turizm va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

2-bob Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda Amir Temur davri yodgorliklaridan foydalanish

- 2.1 Amir Temur davrida bunyodkorlik ishlarining rivojlanishi
- 2.2 Qashqadaryo viloyatidagi Amir Temur davri yodgorliklari va ulardan turizmda foydalanish masalalari
- 2.3 Turistlar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash masalalari

3-bob Samarqand viloyatida joylashgan Amir Temur davri yodgorliklaridan turizmda foydalanish

- 3.1 Amir Temur maqbarasi va undan turizmda foydalanish
- 3.2 Shoxi Zinda majmuasi va undan turizmda foydalanish
- 3.3 Ruhobod va Bibixonim majmualaridan turizmda foydalanish

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

*Sohibqiron har yerdakim, imoratqa
qobil yer ko'rsa erdi, ul yerda, albatta, bir
imorat solur erdi.*

Sharafiddin Ali YAZDIY

Bizga ma'lumki iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlardan biri bo'lgan turizm sohasiga mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtboshimiz tamonidan alohida e'tibor berilmoqda. Xususan «O'zbekturizim» Milliy Kompaniyasini tashkil etilishi, turizm to'g'risidagi qonunning hamda sohani rivojlantirish bo'yicha chora – tadbirlar dasturlarining qabul qilinishi va ko'plab turistik ob'ektlarning qaytadan ta'mirlanishi kabilar bilan bir qatorda turizm infratuzulmasini rivojlantirishga katta etibor berilmoqda.

World Travel & Tourism Councilning ma'lumot berishicha, O'zbekiston turizm sohasi jadal rivojlanayotgan yetakchi mamlakatlar beshtaligiga kirgan. Bu e'tirof dunyo bo'yicha Turizm va sayohatlar Butunjahon kengashining “2013 yilda turizm sohasining iqtisodiy rivojlanish natijalari” tadqiqotlari natijalariga ko'ra e'lon qilingan.

Tadqiqotlarda asosiy ko'rsatkich qilib tarixiy obidalarining saqlanganligi, dunyo miqyosida turistlarning ushbu obidalariga qiziqish bildirishi olingan. Bundan tashqari yana turizm sohasining rivojlanishi uchun davlat tomonidan mablag'lar ajratilishi ham nazarda tutilgan.

Xalqimizning bunyodkorlik borasidagi ilmu salohiyati, boy an'ana va tajribalari asrlar osha dunyo ahlini hayratga solib kelayotgani sir emas. Shu bois ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan tarixiy inshootlarning qurilish va bezak ashyolari, arxitekturaviy yechimini o'rganish va tadqiq etishga qiziquvchilar Yer yuzining ko'plab mintaqalarida topiladi. Bu esa bitiruv malakaviy ishimning ***dolzarbligini*** belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Amir Temur davri yodgorliklar va ulardan turizmda foydalanish yo'llarini o'rganishdan iborat. Qayd qilingan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi maqsad qilib olingan:

- Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning ob'ektiv zarurati;
- Mintaqaviy turizm va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari;
- Amir Temur davrida bunyodkorlik ishlarining rivojlanishi;
- Qashqadaryo viloyatidagi Amir Temur davri yodgorliklari va ulardan turizmda foydalanish masalalari;
- Amir Temur maqbarasi va undan turizmda foydalanish;
- Shoxi Zinda majmuasi va undan turizmda foydalanish;
- Ruhobod va Bibixonim majmualaridan turizmda foydalanish kabialarni o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqot predmeti. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida Amir Temur davri yodgorliklaridan mintaqaviy turizni rivojlantirishda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti bo'lib Amir Temur davri yodgorliklari hisoblanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida berilgan takliflar amaliy jihatdan mintaqaviy turizmni rivojlantirishda Amir Temur davri davri yodgorliklaridan foydalanishga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.


1-BOB. MINTAQAVIY TURIZM VA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning ob'ektiv zarurati

Ma'lumki, turizm sohasini rivojlantirish ko'plab ish o'rinlarini yaratilishiga, aholini ish bilan ta'minlash hamda ularning daromadlari oshishiga sabab bo'ladi. Xozirda butun dunyoda, shuningdek O'zbekistonda ham iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasi bo'lmish turizm sohasiga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston mintaqalarida (jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlarida) saqlanayotgan har bir davrga xos bo'lgan va sivilizatsiyaning o'ziga xos 400 dan ortiq me'moriy va tarixiy-madaniy obidalar, arxeologik yodgorliklar mavjud bo'lib ularning ko'pchiligi YUNESKOning butunjahon madaniy meroslar ro'yxatiga olingan. Bu shundan dalolat beradi-ki, mamlakatimiz mintaqalarida yetarlicha turistik imkoniyatlar mavjud va ularni o'rganish, tadqiq etish bugungi kunning asosiy masalalaridan bo'lib hisoblanadi.

“O'zbekturizm”MKning 2006-20012 yilgi ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatimizda jami xizmat ko'rsatilgan turistlar shu jumladan, xorijiy turistlar soni quyidagicha (1.1.1-rasm).



1.-rasm. O‘zbekiston respublikasida jami xizmat ko‘rsatilgan turistlar sonidagi o‘shish dinamikasi¹

Chizma ma’lumotlari bo‘yicha, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatilayotgan turistlar shuningdek, xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan turistlar soni yildan-yilga oshib bormoqda.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, turizm sohasi xozirgi vaqtda xalq xo‘jaligining muhim qismi bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning barcha jabhalariga amaliy ta’sir etib kelmoqda shu bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham taboro ortib bormoqda.

“Kun.uz” saytining ma’lumotlarini tahlil qilsak 2013 yilda O‘zbekistonga 1,977 million nafar chet ellik mehmon tashrif buyurdi. Turistik xizmatlarning umumiy hajmi 2012 yilga nisbatan 16 foizga, xizmatlar eksporti esa 9 foizga o‘sdı. 2014 yilning boshida mamlakatda faoliyat yurituvchi sayyohlik tashkilotlarining soni 900 dan ortiqni tashkil etdi. Ulardan 400dan ziyodi mehmonxona xo‘jaligi va 500 tasi turistik kompaniyalardir. 2013 yilda Xorazm, Surxondaryo, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Bu dasturlarni amaliyotga tatdbiq etish uchun 260 million AQSH dollari hisobida mablag‘ kiritish nazarda tutilgan².

Umuman olganda mamlaktimizda bu sohani rivojlantirishga davlat siyosati darajasida qaralib, bu borada muhim tashkiliy ishlar olib borilayotganligi uchun soha jadal rivojlanib bormoqda.

¹ “Ўзбектуризм” МК маълумотлари асосида ишлаб чиқилди

² <http://kun.uz/2014/01/29/uzbektourism/>

Ammo tan olishimiz kerakki mamlakatimizni boy turistik resurslarga ega bo'lishi nuqtai nazaridan oladigan bo'lsak yuqoridagi ko'rsatkichlar hozirgi kunda qoniqarli bo'lib hisoblanmaydi.

Fikirimizcha mamlakatda mintaqaviy turizmning tez sur'atlarda rivojlanishiga erishish uchun Respublika bo'yicha faqat Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkentga e'tiborni kuchaytirmasdan balki boshqa mintaqalar bo'yicha ham turizmni rivojlantirishning tegishli chora tadbirlar dasturini ishlab chiqish va uning ijrosi yuzasidan nazoratni kuchaytirish lozim bo'ladi. Bunda albatta mintaqalarda turizmning rivojlanishi, turistik resurslardan samarali foydalanish va turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyatini tartibga solib turuvchi boshqaruv organlarining samaradorligini oshirish lozim.

Davlat statistika Qo'mitasi 2012 yilgi ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz unga ko'ra 2012 yilda turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi firma va tashkilotlar soni Jizzax va Namangan viloyatlarida atigi 1 tadan ekanligini, ushbu yilda sotilgan turlar soniga e'tibor beradigan bo'lsak Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida hech qanday turlar sotilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan xulosa qilish mumkinki, yuqorida qayd qilingan viloyatlardagi "O'zbekturizm" MKning SEBlari qoniqarsiz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga ushbu viloyatlar hokimliklari o'z viloyatlarida turizm tadbirkorligini tashkil qila olmayapdilar.

Demak, mintaqaviy turizmni rivojlantirish uchun quyidagi dolzarb muammolarning yechimini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

- turizm boshqaruv organlari tarkibini soha bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash;
- mintaqalarning turistik resurslarini xalqaro va ichki turizm darajalariga ajratish va ularni mukammal o'rganib ma'lumotlar bazasini yaratish;
- hali o'rganilmagan resurslarimiz ko'pligi nuqtai nazardan ularni o'rganib, tavsiflarini yaratib tegishli turistik marshrutlarni ishlab chiqish;
- turizmi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib ularning o'zimizda qo'llash mumkin bo'lgan yo'nalishlarini olib amaliyotga joriy etish;

- soha bo'yicha kadrlar bilim va malakalarini oshirish maqsadida xalqaro tajribalar almashinishni yo'lga qo'yish;
- mintaqalarda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishni jadallashtirish va ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha doimiy monitoring olib borish;
- mintaqaviy turizm organlarining mutaxassis kadrlar yetkazib beruvchi o'quv yurtlari bilan aloqalarini kuchaytirish;
- xalqaro darajadagi reklama mahsulotlarini ishlab chiqish va turizm bozoriga chiqarish va boshqalar.

Ushbu vazifalarni ham qilsak o'ylamizku mintaqalarda turizmning tez sur'atlarda rivojlanishiga erishishimiz mumkin.

1.2. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Mintaqaviy turizm iqtisodiyotning o'ziga xos bo'lgan sohasi bo'lib, ushbu soha ham boshqa sohalar singari mamlakat iqtisodiyotiga, uning yalpi ichki mahsulotining ko'payishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shadigan soha hisoblanadi. Xozirgi paytda turizm juda muvozanatsiz xolatda rivojlanmokda.

Turistlarga sifatli xizmat kursatishni tashkil qilish – dunyoning deyarli barcha shaharlarida joylashgan yirik turistik firmalar va turagentliklar tizimining faoliyati vazifasi hisoblanadi.

Xorijiy va mahalliy turistlarni kabul qilish va xizmat kursatish dasturini ishlab chikishda majmualiy yondashuv tug'ri loyixalashtirishni taqozo etadi.

Izlanishlar shuni kursatadiki, mamlakatimiz hududlaridagi ko'pgina turistik firmalarda turizm faoliyatiga jiddiy munosabatda bulmaslik xolatlari va rivojlanish umuman yuqligi bilan birga yil davomida turistlarga xizmat ko'rsatish hajmining pasayish tendensiyalari kuzatilmokda. Shuningdek, ayrim turistik resurslardan foydalanish darajasi ham unchalik yaxshi emas.

Mamlakatimizda turistik resurslar, ulardan foydalanish va umuman turizm sohasi yetarli darajada yaxshi rivojlanishiga erishish uchun birinchi navbatda ushbu sohani mintaqalar darajasida rivojlanishga erishmog'imiz lozim.

Mintaqaviy turizmning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Mintaqaviy turizm mavsumiylik xususiyatga ega bo'lib, odamlarning bir joydan ikkinchi joyga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga qisqa muddatda harakatining sodir bo'lishi bilan belgilanadi. Bunda odamlar yakka bo'lib emas, balki guruh-guruh bo'lib harakatlanadi. Mintaqaviy turizmning bu xususiyati, ta'kidlanganidek, qisqa muddatliligi. Ko'p hollarda bu 2-3 kun, asosan, dam olish kunlariga to'g'ri keladi. Ta'til davrida bir haftalik, o'n kunlik turistik sayohatlar ham bo'lishi mumkin.

Uning mavsumiyligi shundaki, ko'p hollarda tabiat qo'yniga sayohat qilish bahor, yoz va kuz oylarida amalga oshiriladi. Ayrim turistik yurishlar qish manzarasini tamosha qilishga qaratilgan bo'ladi. Umuman olganda bahor, yoz oylari sayohat uchun qulay fasllar bo'lib hisoblanadi. Yana shuni ta'kidlashimiz kerakki, mamlakatimizning ayrim mintaqalaridagi turistik resurslaridan kunlarning juda sovib yoki isib ketishi nuqtai nazaridan foydalanish darajasi pasayadi yoki umuman yo'qoladi;

- turistlarning doimiy yashash joyidan boshqa joyga borishi tushuniladi. Ishlab pul topish maqsadidagi harakati bunga kirmaydi. Bu harakat bita hudud, bir mamlakat ichida va mamlakatlararo ham bo'lishi mumkin;

- mintaqaviy turizmga faqat bo'sh vaqtida dam olish, uni faol o'tkazish usuli sifatida qaralishi ham uning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Ko'p hollarda boshqa hududlarda sayr qilish, tamosha, o'rganish kabi holatlar odamlarni xizmat safariga jo'natganda ham sodir bo'lishi mumkin. Lekin bu yerda maqsad ma'lum ishni bitirishga qaratilganligi tufayli uni turizmga kiritib bo'lmaydi;

- mintaqaviy turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda kata. Bu ham mintaqaviy turizmning o'ziga xos xususiyati va kata ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi;

- mintaqaviy turizm mintaqalar iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mintaqaga daromad keltiradi, qattiq valyuta tushumini

ta'minlaydi, mintaqa aholisini ish bilan ta'minlash darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli tomoshalar qiladilar. Hammasiga naqd pul, ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini ta'minlaydilar.

Shunday qilib, mintaqaviy turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mintaqaviy turizm umumiy iqtisodiy o'sishga, kam rivojlangan mintaqalarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Yaxshi rivojlanmagan mintaqalarda turistik markazlarni ochish ko'pgina davlatlarning asosiy usuli hisoblanadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazning tashkil qilinishi shu joylarning uzlashtirilishiga, axoli turmush sharoitining yaxshilanishiga yordam beradi.

Xalqaro va milliy darajada mintaqaviy turizmning rivojlanishi ko'plab qishloq joylariga yangicha xayot olib kelishi, axolining jipslashuviga kumak berishi va shu joyning uzida kishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishga katta turtki bo'lishi mumkin.

Mintaqaviy turizm rivojining kelajagini aniqlash uchun avvalo, mintaqaning moddiy – texnik bazasi, u yerdagi turistik resurslar hajmi va holati, turistik mahsulotga bo'lgan talabni chuqur o'rganish lozim. Bu ishda turistik resurslarning bahosini xaddan tashqari oshirib yubormaslik lozim. Masalan, ma'lum bir mintaqadagi tarixiy yodgorlik faqat shu joyning o'zi uchungina kiziqarli bo'lishi mumkin, xalqaro maydonda esa boshqa ko'plab yodgorliklarning oldida mazkur yodgorlikning u qadar ahamiyati bo'lmasligi va turistlarni o'ziga jalb qilmasligi mumkin va shuning uchun ham bunday mintaqalarda moddiy-texnika bazani yaratishdan ko'p foyda olish amri mahol. Turistik resurslarni baholashda, qo'shni mintaqadagi resurslarni ham hisobga olish kerak buladi.

Shunday kilib, qoloq mintaqada barpo etilgan turistik markaz uning rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, bu kabi rivojlanishning tashkil etilishi kelgusida iqtisodiy disproporsiyaning chuqurlashuvini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi katta turistik salohiyatga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari, BMT qoshidagi YUNESKOning butun Dunyo tarixiy va

madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Mamlakatimizda faqatgina tarixiy, madaniy, me'yoriy, arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan turistlarni jalb qilish mumkin bo'lgan ob'ektlar soni 7,0 mingdan ziyodni tashkil qiladi. Ulardan 545 tasi me'moriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at, 5500 tasi arxeologik obidalaridir. Ulardan turistik ob'ekt sifatida qamrab olingani atigi 140 ta. Bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 2,0 foizni tashkil qiladi, xolos. Qolgan turistik ob'ektlar, qimmatli obidalar haqida reklama ham, aniq ma'lumotlar ham yetarli emas. Demak, ko'rinib turibdiki, hali bu borada ancha ishlarni amalga oshirish lozimga o'xshaydi. Bunda tarixchi, arxiolog, qadimshunos kabi olimlarning ham xizmatlari yetarli bo'lishi lozim.

O'zbekistonning turistik salohiyati katta ekanligi bilan birga, ularning ayrim turistik mintaqalari o'ta diqqatga sazovordir. Masalan, turistlarning ko'rishi mumkin bo'lgan ob'ektlar soni bo'yicha Xiva shahari birinchi o'rinda turadi. Unda 310 ta ob'ekt, ikkinchi o'rinda Buxoro shahri bo'lib, unda 221 ta ob'ekt, Toshkent shaharida 144 ta va Samarqandda 118 ta ob'ekt mavjud.

Ushbu mavjud turistik ob'ektlardan tashqari yana bir qancha ob'ektlarni birpo qilish mumkin. Birgina Samarqand viloyatini oladigan bo'lsak, uning Urgut, Omon-qo'ton, Ohalik, Mironqul kabi manzarali tog'-daralari borki, bu joylarga piyoda marshrutlarni tashkil qilish mumkin.

Albatta yoz fasllarida shu daralarda odamlar juda gavjum bo'ladi. Lekin bular o'z ixtiyori bilan borgan dam oluvchilardir. Tashkiliy tarzda bu tog' manzaralariga sayohatlar uyushtirish hamon yo'lga qo'yilmagan. Bunday ob'ektlar Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin, Forish tumanlarida, vodiylarida, Toshkent viloyatining ko'plab manzaralari tumanlarida ham mavjuddir. Gap ularni ishga solib, aholi va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun foydalanishda.

Mintaqalarining asosiy belgilarini hamda O'zbekiston Respublikasi hududidagi ma'muriy chegaralarni hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatayotgan to'rtta: Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxoro, Xorazm va kelajakda rejalashtirilayotgan uchta Jizzax, Qarshi-Termiz, O'rta-Qoraqalpoq turizm rayonini ajratib ko'rsatish mumkin.

Fargʻona turizm rayoni respublikaning Namangan, Andijon va Fargʻona viloyatlarini qamrab oluvchi sharqiy qismida joylashgan. Tabiiy-iqlimiy sharoitlarning turli-tumanligi koʻplab turizm obʻektlari bilan birgalikda bu mintaqadan oʻquv-sogʻlomlashtirish turizmini rivojlantirish maqsadida foydalanish imkoniyatini beradi. Arxeologik va meʼmorchilik yodgorliklar, sanoat komplekslari va xalq xunarmandchiligi Fargʻona hududida turizm kompleksini shakllantiruvchi asosiy turizm obʻektlaridir. Tumanda Sux daryosi yoqasidagi Sariqurgʻonda, Oydinkoʻl koʻlida, Andijonning janubiy-sharqida «Bogʻishamol», Karkidon suv omborida tabiiy dam olish hududlari tashkil qilingan. Gʻoyatda qulay tabiiy imkoniyatlar, daryolar, koʻllar va suv omborlarining koʻpligi togʻ-iqlim sharoitlari bilan birgalikda tumanni katta maydondagi yagona turizm hududiga aylantiradi.

Fargʻona tumanidan turizm maqsadlarida foydalanishga temir va avtomobil yoʻllarining keng tarmogʻi mavjudligi yana bir qulaylik tugʻdiradi va b u tumanning hamma joyida turizm va dam olish bazalarini joylashtirishga imkon beradi.

Toshkent turizm rayoni Toshkent viloyatini qamrab oladi. Bu tuman turizmning barcha turlari uchun universal imkoniyatlarga egadir. Toshkent turizm rayonining diqqatga sazovor boʻlishidagi muhim omili uning boy landshaftli tabiati, rang-barang oʻsimliklar va hayvonot dunyosidir. Tumandagi Tuyabugʻiz va Chorvoq suv omborlarida dam olish hududlari tashkil etilgan. «Chimyon» kompleksi bazasida togʻ-piyoda va togʻ-changi turizmi yetarli rivojlangan. Yaxshi tarmoqlangan avtomobil va temir yoʻllari Toshkent turizm rayonining turizm markazlarini bir-biri bilan bogʻlaydi va shahar atrofidagi temir yoʻl va avtomobil turizmning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Samarqand-Buxoro turizm rayoni. Samarqand, Buxoro va qisman Navoiy viloyatlari hududini oʻz ichiga oladi. Bu tumanda turizmning rivojlanishi Samarqand va Buxoroning butun dunyoga mashhur meʼmorchilik obidalari asoslangan. Choʻlning issiq iqlimini hisobga olgan holda yagona bosh reja asosida bunyod etilgan Navoiy shahri ham taʼlimiy ahamiyatga ega. Tumanning geografik

joylashuvi turizmni rivojlantirish uchun juda qulaydir. Zarafshon daryosi bo'ylab o'tkazilgan temir yo'l, keng rivojlangan shosse yo'llari tarmog'i, Zarafshon orqali unchalik baland bo'lmagan dovonlar va yaxshi suqmoqlarning mavjudligi tumandan turizm maqsadlarida foydalanishni g'oyatda osonlashtiradi.

Xorazm turizm rayoni. O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida, Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Xorazm viloyatining hududini egallagan. Tumandan turizm maqsadlarida foydalanish asosan Ichanqal'a me'morchilik qo'riqxonasida joylashgan Xiva tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga asoslanadi. Ko'plab tarixiy madaniy yodgorliklari butun rayon bo'ylab joylashgan. Xivadan janubi-sharq tomonda Sho'rko'l ko'li bor. Rayondagi taraqqiy etgan aloqa yo'llari tizimi kelajakda bu yerda rayon va rayonlararo ahamiyatga ega bo'lgan turli xil turizm marshrutlarini o'rnatishga imkon beradi.

Jizzax turizm rayoni. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududlarini o'z ichiga oladi. Mazkur rayonning transport bilan yaxshi ta'minlanganligi va unda tabiiy resurslarining mavjudligi undan turizm maqsadlarida foydalanish istiqbollarini belgilab beradi. Bu yerda shu yerlik va yaqinda joylashgan turizm rayonlari aholisi uchun mo'ljallangan dam olish kunlari marshrutlarini va qisqa muddatli dam olishni tashkil qilish mumkin.

Qarshi-Termiz turizm rayoni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlaridan iborat. Shahrisabz, Qarshi va Termiz shaharlaridagi arxeologik va tarixiy-arxeologik yodgorliklar, Kitobdagi astronomik kenglik, Dendropark rayonida turizmni rivojlantirishning asosini tashkil qiladi. Qashqadaryo, Surxondaryo, amudaryo qirg'oqlarida, Chimqo'rg'on, Pachkamar va Janubiy Surxondaryo suv omborlarida turizm va dam olish maskanlarini yaratishning istiqbollari bor. Hisor tog' tizmasi yonbag'irlarida tog' turizmi bazalarini joylashtirish mumkin.

Kelgusida O'zbekistonning Yana bir O'rta Qoraqalpoq rayonini ham o'zlashtirish mumkin. Bu hududni o'zlashtirish kommunikatsiyalar qurish uchun katta kapital mablag'larni, katta hajmdagi obodonlashtirish ishlarini talab qiladi. Bu yerda Tuproqqal'a, Burgutqal'a, Gildursun qal'alari, Qiyot shahri kabi

ekskursiya ob'ektlari joylashgan. Bu arxeologik yodgorliklar qadimgi Xorazm sivilizatsiyasiga oid bo'lib, ta'limiy turizm resurslari sifatida tarixiy-me'morchilik ahamiyatiga ega bo'lgan Xorazm turizm rayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu yodgorliklar majmuasiga borish uchun bu hududda yaxshi transport yo'llari mavjudligi ularni Xorazm rayonining turizm resurslariga kiritilishini taqozo qiladi.

2-BOB. MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA AMIR TEMUR DAVRI YODGORLIKLARIDAN FOYDALANISH

2.1. Amir Temur davrida bunyodkorlik ishlarining rivojlanishi

Amir Temur Davrida O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, xunarmandchilik va me'morchilik ravnoq topdi. Mamlakatlardan ko'plab fan va san'at ahillarini, xunarmand me'mor va musavvirlarini to'pladi.

Amir Temurning boshqa davlat boshliqlaridan farqi, u butun umri davomida bunyodkorlik ishlari bilan mashg'ul bo'lganligida. El – ulus dardi, Vatan obodligi va yaxlitligi g'ami bilan yashadi. Ul ulug' zotning bizga qoldirgan «qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim» degan o'gitomus so'zlari fikrimizning isbotidir.

Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namayon bo'ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «Qudratimizni ko'rmoq istasang-binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movaraunnahr qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar muhim ahamiyat kasb etadi. Ilk o'rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan «Shahriston» dan ko'lam va mazmuni bilan farq qiluvchi «Hisor» qurilishini Samarqand va Shahrisabzada kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahri qurilishi yakunlandi. «Hisor» ning janubi-g'arbga xukumat saroyi Oqsaroy va atrofda robatdir, bog'-rog'lar qurildi.

Temur saltanatining paytaxti bo'lmish Samarqandni bezatishga alohida e'tibor bergan. Shaharda «Hisori», qala, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Temur davrida Samarqand Afrofsiyobdan janubda mo'g'illar davridagi ichki va tashqi shahar o'rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal'a devori xandak bilan o'ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.

Shahar mahallardan iborat bo'lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug'i bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyoti yangi bosqichiga ko'tarildi. Inshootlar ko'lami bilan birga uning shakli ham yiriklashdi. Bu jarayon muxandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi. Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig'i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi.

Temuriylar davrigacha va undan keyin Movaraunnahr va Xuroson me'morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur davri me'morchiligida bezakda ko'p ranglik va naqshlar xilma-xilligi kuzatildi, bino ichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, xatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatilgan. Temur davrida qurilgan binolarda ko'k va zarxal ranglar ustun bulib, dabdabali naqshlar ishlangan.

Bu davrda diniy inshootlar, xukmdor saroylari, aslzodalarning qarorgohlari ko'plab qurildi. Temur Xindiston yurishidan so'ng (1139y) Samarqandda jo'me masjidi qurirdi. Uning ro'parasida Bibixonim madrasasi va maqbara bunyod ettirdi.

Temur davrida saroy Mulk xonim, Guri Amir majmuasida madrassalar kurilgan. Samarqandda Temur davrida Shayx Burxoniddin Sag'orjiy xilxonasi-Ruxobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi-Go'ri amir. Shuningdek, Shoxizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar qurildi.

Temur davrida ulkan inshoot-Turkiston shaxrida Axmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. Bu maqbara musulmon sharqining me'moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir.

Qadamjolar me'morchiligi ham o'ziga xos tuzilishiga ega. Temur Buxoroda Chashmai ayub (1380) yodgorligi kurdiradi. Shuningdek, Temur Shaxrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun «hazira»- «Dor us-siyozat» (1389-1400) xilxonasini qurdirgan. O'g'li Jahongir vafot etgach Shaxrisabzda (Hazrati Imom) maqbarasini qurdirgan. Unda Xorazm memorchiligi an'analarini ko'rish mumkun.

Temurdavrida qurilgan. Shirinbeka oqa, Bibixonim, Tuman oqa obidalar, naqqoshlik va xattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjud bo'lgan. Shirinbeka oqa maqbarasida tasvir ko'p ranglarda, qolgan ichki bino devorlari oq va moviy rang tabiat manzaralari tasvirlangan.

Temur taxtda o'tirib saltanat va aiysh-ishrat surish fe'lidan holi edi. U ma'naviyatni mustahkamladi. Toshkentda Zangi ota, Buxoroda Chashmai Ayyub, Termezda At Termiziy, Samarqandda Ruxobod, Chupon Ota kabi avliyolar sharafiga maqbara va xonakohlar bunyod ettirildi.

Temur davrida qurilgan binolarning talaygina qismi bizgacha yetib kelmagan. Lekin, saqlanib qolganlari ham uning qudrati va o'sha davr me'morchiligining nihoyatda yuksalganligini ko'rsatib turibdi. Bular jumlasiga Samarqanddagi Shohi Zinda tarixiy yodgorligi ichidagi qator maqbaralar, Ruxobod (Shayx Burxoniddin Sagorji maqbarasi), Guri Amir ansamblining asosiy qismi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi harobalari va umuman Shahrisabz devori bilan o'rab olingan tarixi hamda Turkistondagi Xo'ja Ahmad Yassaviy xonakoxini kiritish mumkin.

2.2. Qashqadaryo viloyatidagi Amir Temur davri yodgorliklari va ulardan turizmga foydalaish masalalari

Qashqadaryo viloyatdagi tarixiy yodgorliklardan 600 dan ziyodi arxiologiya, 200 ga yaqini me'moriy va shaharsozlik yodgorliklaridir. Viloyatdagi mashhur obidalar Shahrisabz shahrida joylashgan. Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi, Amir Temurning 660 yilligi, Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Shahrisabzda obidalarni ta'mirlash ishlari keng ko'lamda olib borildi. Oqsaroy me'moriy majmuasi konservatsiya qilindi, markaziy maydonda Amir Temurga haykal o'rnatildi. Dor ut-tilovat, Dor us-siyodat majmuasidagi Jahongir (Hazrati Imom) maqbarasi, Oqsaroy majmuasi, Ulug'bek madrasasi, Kitob tumanidagi Xoja Ilimkon xonaqosi, Langan qishlog'idagi Langanrota maqbarasi, Fudino qishlog'idagi Xusamota ansambli, Qarshi shahrida Mahalla masjidi saqlangan. Qarshi shahrining

2700 yilligi munosabati bilan Qarshi shahridagi Ko'kgumbaz masjidi, tarixiy ko'prik va boshqa madrasa va masjid binolari ta'mirlandi.

Amir temur tug'ulgan yurt Qashqadaryo viloyatida ham bugungi kunda turimiz asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Qashqadaryoning bog'lar va uzumzorlarga burkangan Shahrisabz shahri qadimda xunarmandchilik markazi bo'lgan. Shahrisabzdagi dastlabki turar joylarga V-VI asrlarda asos solingan bo'lsa, IX-X asrlarga kelib u yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Amir Temur tomonidan devor bilan o'ralganidan so'ng u madaniyat va ilm-fan shahriga aylangan.

Shahrisabz shaxrining tarixiy eski shahar kismidagi Amir Temur va temuriylar davriga mansub 19 ta madaniy memorchilik yodgorliklari YUNESKOning «Umuminsoniy kadriyatlar» kitobi ruyxatiga kiritilgan. Yodgorliklarda muzeyifikatsiya ishlari yulga kuyilmokda. Yodgorliklar kompakt ravishda joylashgan bulib, asosan bitta katta ko'cha «Buyuk ipak yuli» kuchasi)da joylashgan. Shahar markazida transport yo'li bir tomonlama bulib, yodgorliklarda piyoda sayoxat qilish ham mumkin.

Qashqadaryoning Qarshi shahri Samarqand va Buxorodan Afg'oniston va Hindistonga o'tuvchi karvon yo'llari asosida yuzaga kelgan. Qarshi bir necha arxitektura yodgorliklariga ega. Bular: Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan Ko'kgumbaz masjidi (1463 y.), Jome' masjidi, Minorali Qo'rg'oncha (XIX-XX asrlar), Xo'ja Abdulaziz madrasasi (XX asr), Qilichboy madrasasi (1714 y.), Zaxok- Moron shaharchasi harobalari (eramizdan avvalgi I asr-eramizning V asri) va Qashqadaryo daryosi ustidan o'tgan qadimiy ko'prik kabilardir. Shaharda O'lkashunoslik muzeyi ham bor.

Qashqadaryoning muhim arxeologik yodgorliklari-Temuriy sulolasiga tegishli Shamsiddin Mir Kulol maqbarasi, Ko'kgumbaz masjidi, Gumbazi Zeydan maqbarasidir.

Hisor tog'larning janubi-g'arbida 1975 yilda Qizilsoy qo'riqxonasi tashkil etilgan. Bu yerda silovsin, ayiq, qor barsi kabi noyob hayvonlarni uchratish

mumkin. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi eng yirik gʻorlardan biri – Amir Temur gʻori ham shu atroflarda joylashgan.

Qashqadaryoda Xoja Ubaydulla, Jarroh Abduraxmon Ota, Gʻulom Naqshbandiylar ziyoratgoxlari, Sulton Mirhaydar maqbarasi kabi ziyoratgoxlari ham bor.

Shahrisabzning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Oqsaroy (1380 y.);
2. Dorus - Saodat majmuasi (XIV asr);
3. Xazrati Imom masjidi (XIV asr);
4. Jahongir maqbarasi (XIV asr);
5. Dor-ut-Tilovat arxitektura majmuasi;
6. Koʻkgumbaz masjidi (1435 y.);
7. Gumbazi Saidon (XV asr);
8. Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr).

Amir Temur oʻz davrida Samarqandni poytaxt qilib olsada ota Vatani Keshni obod qilishni hech qachon nazaridan qochirmadi. U Keshda koʻplab jamoat binolarini bunyod etdi. ***Dor ut-tilovat*** (2.1-rasm) (Qurʻon tilovat qilinadigan uy) majmuasi qurilishi bilan alohida eʼtiborlidir. Bu yerga 1370 yili otasi va oʻzining piri komili boʻlgan Shamsiddin Kulolni dafn ettirdi va toʻrt yil oʻtgach qabr ustiga gumbaza qurdirib, otasi jasadini ham unga keltirib qoʻydirdi.



2.1-rasm. ***Dor ut-tilovat***

Shahri Keshda Amir Temur tomonidan bunyod etilgan (1380-1404) mahobatli binolardan biri bu ***Oqsaroydir*** (1380 y.). Klavixoning qoldirgan ma'lumotiga ko'ra, Oqsaroyda oliy hukmdor va oilasi yashashidan tashqari, davlat muassasalari ham faoliyat olib borgan.

Oqsaroyni Amir Temur onasi xotirasiga atab qurdirgan. Uning peshtoqiga «Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, qurgan binolarimizga boqing» deya Amir Temur avvalo, o'z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan.

Oqsaroyning ma'lum qismi Shayboniy hukmdorlardan Abdullaxon tomonidan buzib tashlangan va g'ishtlari Buxoroga olib ketilgan. Sababi uning bunyodkorining ulug'vor xotirasini unutish edi.



2.2-rasm. ***Oqsaroy***

Ma'lumki, YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan mazkur tarixiy inshootni bunyod etish ishlari 1380 yilda Sohibqiron Amir Temur tomonidan boshlangan bo'lib, uning mahobat va tarovati, betakror jozibasi xususida o'sha davr tarixnavislari asarlari, xususan, ispaniyalik elchi Rui Gonzales Klavixoning esdaliklarida qayd etilgan.

Oqsaroy O'rta Osiyodagi o'rta asrlarga oid buyuk memoriy yodgorligidir. Xozirda kasrning peshtokning ichki kudratli ustuni, kasr maydoni, fontan xovuzlari va reja asosida bunyod etilgan bog'ning 10 ga yaqin chinorlari saqlanib qolgan. Oqsaroyning to'liq tasviri o'rta asrda yashagan tarixchilar va shoirlarning yozma manbalarida saqlanib qolgan. Masalan Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali

Yazdiy, Xofiz Obru, Ibn Arabshox, Muhammad Bade Malexo, Mirzo Bobur, Alisher Navoiy va Kastiliya (Ispaniya) elchisi Rui Gonzales Klavixo estaliklarida uchraydi. Inshoat 1380-1404-yillar moboynida bunyod etilgan. Oksaroy yodgorligida Urta Osiyo memorchilik maktabiga xos xilma-xil uslublar kullangan, masalan naqshinkor va mayolikali sirkor gishtlardan iborat mozayika. O'yma mozayikada yetti xil rang; kuk, lojuvard, qora, sariq, yashil, oq, gishtin-qizil va tilla rang berilgan.

Dorus - Saodat majmuasi (XIV asr) (2.3-rasm). Dorus-tilovat majmuining sharqida Dorus-saodat majmuasi joylashgan bo'lib, unda Xazrati Imom maschiti, Amir Temurning bevaqt vayfot etgan to'ng'ich valiaxd o'g'li Jaxongir Mirzo maqbarasi, janub tomonida Amir Temurning keyingi o'g'li Umarshayx Mirzo maqbarasi va sharqiy tomonda ko'rinishidan Amir Temurning o'zi uchun bunyod etilgan makbaralari joylashgan. Arxeologik qazishmalar davrida ko'plab Keshlik barlos amirlarining ham maqbaralari aniqlangan. Bino o'z davrida juda xashamatli bo'lib, uni qurgan tarixchilar xayrat bilan yozishgan. Xozirda saqlanib qolgan imorat poydevorlari, Jaxongir maqbarasi, Amir Temur sag'anasi va Xazrati Imom maschiti va xovlidagi chinorlar ham majmuaning xashamatidan dalolat berib turibdi.



2.3-rasm. ***Dorus - Saodat majmuas***

Xazrati Imom masjidi (XIV asr) (2.4-rasm). 1384 yilda Amir Temur avliyo Muhammad Shayboniyning xokini keltirib Dorussiyodatga, o'g'li Jahongir qabri

oldiga dafn ettirgan. Amir Temur ko'rsatmasi bilan xorazmlik ustalar baland bino barpo etganlar. Muhammad Shayboniy musulmon olamida "Hazrati Imomi Bag'dodiy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Majmuaga Amir Temur o'zi uchun katta xilxona qurdirgan. Majmuaning ulkan ark va devorlari, o'n olti qirrali asosga qurilgan gumbazlari qimmatbaho tosh va shishalardan ishlangan naqshinkor bezaklar bilan bezatilgan.

Qashqadaryo viloyatining eng qadimiy masjidlaridan biri bu **“Hazrati imom”** masjididir. Masjid sharqona usulda, o'ymakorlik san'atiga nihoyatda e'tibor qaratilganligi bilan ham alohida diqqatga sazovordir. Ayvonda 9 ta tarixiy ustun mavjud, balandligi 8 metr. Masjid ichining balandligi taxminan 15-17 metr keladi. Qariyb 700 yillik tarixga ega, aylanasi 6 metrlik bahaybat chinor masjidga tengsiz ko'rk berib turadi. Zinalar, hovuz, mezana, talaygina qabrlar ziyoratgoh – yodgorliklar insonni uzoq o'tmishga chorlaydi.



2.4-rasm. *Hazrati Imom masjidi*

Hazrati Imom ham buyuk insonlardan biridir va u kishining nomi hanuzgacha e'zozlanib, ehtirom bilan tilga olinadi. Tarixiy manbalarda ul zot haqida juda qisqa ma'lumot berilgan. Tarixchi manbashunos olimlardan G.A.Pugachenkova va L.Yu.Mankovskayalar Kesh-Shahrisabz tarixi va tarixiy yodgorliklarini hikoya qilib, Hazrati Imom haqida ham qisqagina ma'lumot berib ketganlar. Hazrati Imomning asl nomi Muhammad ibn al-Hasan ibn Vohid Abu Abdulloh. U kishi Iroqning Kufa shahrida tug'ilgan. Kelib chiqishi esa arablarning Shaybon

qabilasidan bo'lganligi uchun Muhammad Shayboniy deyishgan. Hazrati Imomni esa xalq e'zozlab qo'ygan laqab hisoblanadi. Uni yana Imomi Mohiro'y ham deyishgan. Muhammad yoshlik chog'laridanoq hidoyat yo'lidan borib, Qur'on Karimni yod oladi. Hadisi sharifni o'rganadi. Diniy bilimlarni har tomonlama chuqurlashtirib, talqin qiladi.

Muhammad Shayboniy (Hazrati Imom) milodiy 804 yilda Eronning Ray shahrida vafot etgan va shu shaharda dafn etilgan. Ulug' allomaga ulkan maqbara qurilgan bo'lib, odamlar uni hamisha ziyorat qilib turishadi. Sohibqiron Amir Temur 1384 yilda Ray shahrini fath etadi. Miloddan avvalgi uch yuz yilda yunonlar tomonidan asos solingan bu shaharda Imom Muhammad Shayboniy-Imom A'zamning munosib shogirdlaridan biri dafn etilganini Sohibqiron "Olamning turli mamlakatlari va shaharlarida dinu shariatni rivojlantirib, sayyidlar, ulamolar, shayxlarni, mashoyixlarni izzatu ikrom qildim" deb yozgan. Sohibqiron ana shu shioriga amal qilib Imom Muhammad Shayboniy maqbarasini ham ziyorat qiladi.

Rivoyatlarga qaraganda Sohibqiron Amir Temur Hazrati Imomning suyaklarini Shahrisabzga olib kelib dafn qilgan va salobatli maqbara qurdirgan. Sohibqironning bundan maqsadi birinchidan, ul zoti sharifga o'z hurmat-izzatini bajo keltirgan bo'lsa, ikkinchidan, imomu shayxlar, avliyolar mangu qo'nim topgan joyni Alloh balo-qazo, ofatlardan saqlaydi deb hisoblagan. Qadimshunos olim L.Yu.Mankovskaya keltirgan yana bir rivoyat bo'yicha esa Hazrati imom Shahrisabzlik fiqhshunos olim Abu Muhammad Abdal Keshiy shaxsiga mansubligi 1868-1869 yillarda Jahongir Mirzo maqbarasi Eshigiga o'yib yozilgan va o'sha vaqtga kelib esa unutib yuborilgan XIX asr o'rtalarida maqbara bilan bir qatorda sinchli katta ayvoni va hujralari bo'lgan gumbazli guzar masjidi qad ko'targan.

Amir Temur davrida qad ko'targan va Malexo Samarqandiy asarida ko'rsatilgan maqbara vaqtning shiddatli zarbasini ko'tara olmay qor-yomg'ir, zilzilalarga bardosh bera olmay bizning kunlargacha yetib kelmagan. Hozir Hazrati Imom nomi bilan mashhur ushbu masjid Buxoroning so'nggi amiri Olimxonning buyrug'i bilan 1918-1920 yillarda qurilgan. 1920 yilning avgustida Shahrisabz

sho'rolar tasarrufiga o'tgach, ushbu masjid ham yopib qo'yilgan. Faqat 1956 yilga kelib, Hazrati Imom masjidi yana faoliyat ko'rsata boshladi. Qori Yusuf Toshkandiy masjidning birinchi imom-xatibi bo'lgan. Mana 54 yildan beri jomening eshiklari xalqimiz uchun doimo ochiq. Shahrisabzning 2700 yilligi munosabati bilan Dorussaodat majmuiga kiruvchi yodgorliklar, shu jumladan, Hazrati Imom jomei masjidi ham qayta ta'mirlanib, qadimiy Kesh tuprog'ida abadiy uyquga ketgan buyuk allomalar, Islom dini rivojiga hissa qo'shgan muborak zotlarning ruhlari shod bo'ladigan bo'ldi.

Gumbazi Saidon (XV asr) (2.5-rasm). 1437-1438 yillarda bunyod etilgan Gumbazi Sayyidon maqbarasi o'ziga xos maqbaralar majmuasini tashkil etadi. Gumbazlariga naqshinkor bezaklar tushirilgan. Undagi yozuvlarga asoslanib Mirzo Ulug'bek avlodlariga oid, degan taxminlar qilinadi. XV - XVII asrlarda maqbara ichiga Termiz sayyidlari ismlari ko'rsatilgan bir necha qabrtoshlar olib kirilgan. Bu keyinchalik maqbaraning Gumbazi Sayyidon, deb atalishiga olib kelgan. Binoning asosi katta bir xonaqoh, gumbaz hamda unga ulanib ketgan mayda xonalardan iborat.



2.5-rasm. ***Gumbazi Saidon***

Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr). Mustaqillik yillarida yurtimizdagi ko'plab tarixiy, me'moriy yodgorliklar va muborak qadamjolar qayta tiklandi. Jumladan, Kitob tumani Xojaazfarozi qishlog'ida joylashgan "Oqsuv" ziyoratgohi, ya'ni Xoja Shayx Shamsiddin Kulolning maqbaralari ham ta'mirlandi. Mazkur

obidani 1373 – 1374 yillarda Amir Temur hazratlari qurdirgan. Mil. 1370 yilda Shayx dafn etilgan joyga Amir Temur maqbara qurdirgan. 1373 yilda olamdan o'tgan Amir Tarag'ay ham o'zining vasiyatiga binoan ustози Shamsiddin Kulol qabrining oyoq tomoniga dafn etildi. Maqbara to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, kirish qismiga ulkan gumbaz ishlangan, dastlabki qo'yilgan ikkita katta ustun va asosiy poydevor bugungi kungacha saqlangan, devor va gumbazlar Amir Temur davriga xos o'ymakor g'ishtdan bezak va jilva bilan bezatilgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida bunday deb qayd etilgan: "Hijriy 775 yilda hazrat Sohibqirongakim, Haq taborak va taolo davlat karomat qilib erdi. Hazrat ayyomi davlatida Keshda (Kesh shahridan o'n ikki kilometr uzoqlikda Asparozda) piri Shayx Shamsiddin Kulolning mozori yaqinidan (70 – 80 metr sharqiy tomonidan) gumbazli qubbasini tillodan qilib, oliy imorat – xonaqoh qurdirdi..."

Hazrat Amir Temurning otalari Muhammad Tarag'ay Bahodir Xoja Shayx Shamsiddin Kulolni o'ziga ustoz deb bilgan. Manbalarda Sohibqironga Temur ismini u zot qo'ygani va kelajakda hukmdor bo'lishini bashorat etgani aytiladi. Xoja Shayx Shamsiddinning ustози yetuk mutasavvif Sayid Amir Kulol bo'lgan. Bahouddin Naqshband hazratlari Shayx Shamsiddin hazratlaridan uzoq yillar ta'lim olgan.

Mustaqillik yillarida ziyoratgoh maydoni hamda daxma va uning atrofi obod qilindi. Yangi imoratlar qad rostladi. Hozir ziyoratgohda qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lib, bu yerga ko'plab xorijiy mehmonlar ham tashrif buyurishmoqda.

Xo'ja Jarroh yodgorlik majmuasi. Majmua XIV asrga oid bo'lib, hozirgi Qarshi shahrining Xudoyzod mahallasida joylashgan. Rivoyatlarga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur XIV asr oxirlarida Shom va Iordaniya yerlarini zabt etgan paytda ulug' sahobalardan biri Abu Ubayda Omir ibn Abdulloh ibn al-Jarroh qabri xokidan keltirib, Qarshi shahrida dafn ettirgan va u yerga maqbara qurdirgan. Al-Jarroh birinchi bo'lib "amirlarning amiri", degan laqab olgan.

2.3. Turistlar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash masalalari

Xalqaro tajriba, izlanishlarning ko'rsatishicha maishiy ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarning 60-90%i zarar ko'rgan kishilarning mehnatini muhofaza qilishda psixologik bilimlarni tatbiq qilishni ifodalaydi. Bu yerda mehnat faoliyati jarayonida ko'rinadigan psixologik holatlar turlari to'liq tekshiriladi, psixologik jarayonlar, psixik xususiyatlar ko'rib chiqiladi.

Insonning psixik faoliyatida uchta asosiy guruh: - psixik jarayonlar, xossalari, holatlar farqlanadi.

Psixik jarayonlar psixik faoliyatning asosini tashkil qiladi. Boshqaruv bilimlarni jamlash, hayotiy tajribaga ega bo'lish mumkin emas. Psixik jarayonlar bilish, sezish, his-tuyg'u, qabul qilish, iroda, xotira va boshqalarga farqlanadi.

Psixik xossalari shaxsning o'ziga xos xususiyatini, fazilatini (yo'nalishi, karakteri, temperamentini) ifodalaydi. Shaxsning sifatleri (xossalari) ichida zukkolik, zakovatlilik, his-tuyg'u, iroda, odob-ahloq, mehnat ajralib turadi va u o'zgarmas hamda doimiydir.

Psixik holatlar xilma-xilligi, vaqtincha karakteri bilan farqlanadi va psixik faoliyatning xususiyatlarini aniqlaydi, psixik jarayonlarga foydali yoki foydasiz bog'lanishi mumkin.

Mehnat psixologiyasi vazifalari va xavfsizlik muammolaridan kelib chiqib holatlarni ishlab chiqarish va maxsus psixik holatlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlab chiqarishdagi shikastlanish, avariyaning oldini olish choralarini tashkil etishda muhim o'rin tutadi.

Insonning qobiliyati, samarali mehnat faoliyati uning psixik (ruhiy) kuchlanishi darajasiga bog'liq. Psixik kuchlanish insonning mehnatiga ma'lum daraja – chegaragacha ijobiy ta'sir etadi. Faollikni kritik nuqtadan yuqoriga ko'tarish ish qobiliyatini yo'qotishgacha olib kelishi mumkin.

Operator uchun normal sharoitdagi his-tuyg'u va mehnat qilishi uchun ruhiy kuchlanish darajasi 40-60 % dan oshmasligi ko'zda tutiladi, aks holda bu uning ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Psixik kuchlanishning chegaradan yuqori shaklida insonning shaxsiy xususiyatlari pasayadi, harakat koordinati o'zgaradi, xulqi samarasiz holatga o'tadi yoki hayot faoliyatida boshqa salbiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Chegaradan yuqori psixik kuchlanishni xususiyatiga qarab tormozlovchi (to'xtatuvchi), qo'zg'atuvchi turlarga ajratish mumkin.

Tormozlash xili inson harakatining pasayishiga va cheklanishiga olib kelishi bilan ifodalanadi. Kasb egasi vazifani avvalgidek shijoat bilan bajarishga qodir bo'lmaydi, javob berish xususiyati va tezligi pasayadi. Xotiralanish, fikrlash jarayoni sekinlashadi, yomonlashadi va shu kabi boshqa salbiy omillar kuzatiladi.

Qo'zg'atuvchi xilida esa insonda faollikning pasayishi, ko'p gapirish (sergaplik), ovozning titrashi kuzatiladi. Natijada, ya'ni psixik kuchlanishning yuqori shaklida odamlarda-operatorlarda murakkab sharoitlarda noto'g'ri harakatlanish va xatolarga yo'l qo'yish, toliqish sodir bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olib inson psixik holatining nazoratiga katta e'tibor beriladi.

Insoning psixik holatiga ta'sir etadigan omillar – umidsizlanish, kayfiyatning buzilishi, qo'pollik alomatlari, yiqilib tushish, toliqish kabilar bo'lmasligi uchun tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu jumladan, insoning salomatligiga, ish holatiga, psixologik faoliyatiga ijobiy ta'sir etadigan psixofarmakologik vositalar ishlab chiqilgan va ular tavsiya etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Yengil stimulyatorlar (choy, kofe)ni qo'llash insonning ish qobiliyatini qisqa vaqtga oshiradi, uyqusini qochiradi. Ayniqsa, aktiv stimulyatorlarni iste'mol qilish bilan harakatchanlik, sezish qobiliyati pasayadi.

Trankvillizatorlar (seduken, elenium va h.k.) ichilsa, inson bir oz tinchlanadi, lekin nevroz kasalligi kelib chiqadi, uyqu elitadi, faollik, psixik holat pasayadi.

Insoning ish qobiliyatiga, psixik holtiga jiddiy ta'sir etadigan alkohol ichimliklarni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi.

Xullas, maishiy va ishlab chiqarish sharoiti asosida insoning psixik holati barqaror bo'lishi uchun chora-tadbirlar ko'rish, takomillashgan nazorat sulini uyushtirish asosida vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Odam tanasiga o'tib, uning to'qimalariga kimyoviy, fizik-kimyoviy ta'sir qiladigan, mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladigan moddalar zararli va zaharli moddalar deb ataladi. Ular kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqariladi va qo'llaniladi.

Sanoatda zaharli moddalar odam tanasiga nafas olish yo'li yoki teri orqali, ovqat yeyish vaqtida, ifloslangan suvni iste'mol qilinganda o'tadi va saqlanuvchi zaharlanishga olib keladi.

Kuchli zaharlanish ko'proq miqdordagi zararli moddalarni to'satdan tanaga o'tishi bilan sodir bo'ladi. Shuningdek, zararli moddalarni tanaga oz-ozdan o'tishi va yig'ilishi natijasida kasb kasalliklari kelib chiqadi.

Zararli va zaharli moddalarning ta'siri ularning tarkibiga, tuzilishiga, fizik – kimyoviy xususiyatiga, xossalriga, miqdordagi, tanaga o'tish yo'llariga, holatiga, uchuvchanligiga va suvda, yog'da eruvchanligiga bog'liq.

Kimyo sanoati korxonalarida olinadigan, ishlatiladigan moddalar va mahsulotlarning ko'pchiligi, masalan, ammiak, gazlar, benzol, benzin, kerosin, karbon vodorodlar, spirtlar, efirlar, kislotalar, ishqorlar va boshqalar zaharli hisoblanadi.

Neft mahsulotlari tarkibida past molekulali karbon vodorodlar molekulyar og'irligi oshishi bilan ularning zaharlash qobiliyati ortadi. Masalan, butanning ta'siri etandan, etilen esa etandan, atsetilen esa etilendan kuchlidir. Normal tuzilishdagi moddalarga nisbatan tarmoqlangan, zanjirli birikmalarning ta'siri kamroq bo'ladi.

Moddalarning uchuvchanligi kamayib borishi bilan dekan ($S_{10}N_{22}$) dan boshlab ularning ta'sirchanligi ham kamayadi. Karbon vodorodlar tarkibiga galogenlar kiritish, ularning zaharlash qobiliyatini oshiradi, aksincha, giroksil guruhining kiritilishi ta'sirchanlik xususiyatini kamaytiradi.

Karbon vodorodlar molekulasidagi vodorodni nitro (NO_2), amino (NH_2) guruhlarga almashtirish ularning zaharlash xususiyatini o'zgartiradi.

Moddalarning valentligi ortib borishi bilan ularning ta'sirchanligi ham o'zgaradi. Masalan, 6 valentli xrom 3 valentlikdan, marganes oksidi marganes sulfatdan, temir oksidi temir sulfatdan kuchlidir.

Kimyoviy moddalar vakillarining gomologik qatorini o'rganish natijalari ko'pgina o'xshash moddalar haqida fikr yuritishda, kasallikning va zaharlanishning oldini olishda ma'lum darajada yordam beradi. Zahar moddalarni olishda ma'lum darajada yordam beradi. Zahar moddalarni suvda, tanadagi suyuqliklarda eruvchanligining oshishi bilan ularning ta'sirchanligi ham ortib boradi.

Masalan, suvda eruvchan oq mishyak (As_2O_3) kuchli zahar, kam eruvchani (As_2S_3) zaharsiz, eruvchan bariy xloridi (BaCl_2) zaharli, bariy sulfat (BaSO_4) esa zaharsiz va h.k.

Zaharli moddalar odam tanasi va ayrim to'qimalariga ko'rsatadigan ta'sirga qarab shartli ravishda to'qqiz guruhga bo'lingan:

1. **Asab zaharlariga** benzin, kerosin, yog' spirtlari, karbon vodorolar, metanol, anilin, vodorod sulfidi, dioksan, ammiak, nikotin, kofein, tetraetil qo'rg'oshin, fosforli organik birikmalar va boshqalar misol bo'ladi. Ular asosan markaziy asab sistemasini shikastlaydi.

2. **Jigar zaharlariga** tarkibiga xlor, brom, ftor, yod bo'lgan birikmalar misol bo'ladi. Ular jigar to'qimasi faoliyatining buzilishiga, jigarning qattiq yallig'lanishiga olib keladi.

3. **Qon zaharlariga** karbon angidridi, amino – nitrobrikmalarning aromatik qatori va hosilalari, fenal gidrazin, mishyak, benzol, toluol, ksilol va boshqalar misol bo'ladi. Ular qon tarkibining buzilishiga, karboksil va metgemogloblin (SoNb , MtHb) hosil bo'lishiga, to'qimada kislorodning kamayib ketishiga, hatto o'limga ham olib keladi.

4. **Ferment zaharlariga** kiruvchi simob, mishyak, sian birikmalari, fosforli va organik birikmalar (tiofos, metafos) tanani biologik katalizatorlari

hisoblanadigan fermentlarning (Sn) guruhlari bilan bogʻlanib, ular faoliyatining buzilishiga, zaharlanishiga olib keladi.

5. **Qitiqllovchi, kuydiruvchi zaharlar** yuqori va quyi nafas olish yoʻllarini shikastlaydi, kasalanishga olib keladi. Bunday zaharlarga xlor, ammiak, azot oksidi, fenal, kislotalar, ishqorlar misol boʻladi.

6. **Allergen zaharlari** nikel, berilliy birikmalari, nitroxlорbenzol, piridin birikmalari, ursol va boshqalar tananing reaksiya qobiliyatini oʻzgartiradi, terining yalligʻlanishiga, nafas olish yoʻllarining torayishiga va boshqa kasalliklarga olib keladi.

7. **Konserogen zaharlar** hisoblangan toshkoʻmir smolasi, amino va izobirikmalar, xlorbenzidin, koʻmir, qorakuya va boshqalar tanada shish, rak kasalligini keltirib chiqaradi.

8. **Mutagen zaharlarga** etilenimin, etilen oksidi, xlorli karbonvodorodlar, qoʻrgʻoshin va simob birikmalari misol boʻlib, ular odam va hayvonlar jinsiy organlariga qattiq taʼsir etadi.

Emriotron zaharlar (tolid amid va boshqalar) odam va hayvonlarning tugʻilishiga salbiy taʼsir etadi.

3-BOB- SAMARQAND VILOYATIDA JOYLASHGAN AMIR TEMUR DAVRI YODGORLIKLARIDAN TURIZMDA FOYDALANISH

3.1. Amir Temur maqbarasi va undan turizmدا foydalanish

Amir Temur hukumronligi yillarida qurilgan mashhur tarixiy obidalardan yana biri – Go‘ri Amir maqbara majmuasidir. Aslida Temur uni sevikli nabirasi (Jahongir Mirzoning o‘g‘li) Muhammad Sulton uchun qurdirgan edi. U 19 yoshida turklar bilan bo‘lgan jangda fojeali halok bo‘lgandi. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, shu yerga dafn qilinadi. Sohibqiron 1404 yili harbiy yurishdan qaytgach, Muhammad Sultonga atab shu maqbarani qurdiradi. Maqbara tez fursatda bitkazilgan. Bu betimsol ajoyib maqbarani qurgan kishi –Usto Ibn Isfaxoniy edi. Amir Temur Xitoy tomon harbiy yurish vaqtida kasallanib vafot etgandan so‘ng uning o‘zi ham shu yerga dafn qilindi va maqbara Amir Temur nomini olgan holda, keyinchalik bu obida temuriylar sulolasining xilxonasiga aylanib, bu yerda Muhammad Sulton, Amir Temurdan tashqari uning o‘g‘illari Umarshayx, Shoxrux va Mironshox, nabirasi Mirzo Ulugbek hamda Amir Temurning piri Mir Said Barakaning sag‘analari qo‘yilgan.



Darhaqiqat Amir Temur suyukli nabirasi Muhammad Sultonni 1401 yil o‘z yoniga Kichik Osiyo yurishiga chaqirib oladi va u bobosining 1402 yilgi

yurishlarida katta zafarlar qozonib, Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'oklarigacha yetib boradi va ortga qaytayotib, 1403 yilning martida Qorahisordan sharqda uch kunlik masofada bo'lgan joyda 29 yoshida vafot etdi.

Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonning fojiali o'limidan so'ng 1403 yili ushbu maqbarani qurishga farmon bergan. Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etilgan Amir Temur maqbarasining qurilishi 1403 yilda boshlanib, 1424 yilda tugatilgan. Maqbara 1991-1996 yillari katta ta'mir qilindi.

Sohibqiron Amir Temur ham ushbu maqbaradan (1405 yil) abadiy qo'nim topgan. 1409 yilda Amir Temurning kenja o'g'li, Xuroson hukmdori Shohrux Mirzo otasining ma'naviy piri Mirsaid Barakaning jasadini (turbati) Andxoydan olib keltirib, shu maqbaraga, Sohibqironning bosh tomoniga dafn ettiradi. Bu bilan otasi – Amir Temurning vasiyatini bajaradi.



1424 yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan maqbara sahniga qabrtoshlar qo'yilib, atrofi nafis marmar toshdan qilingan panjara bilan o'raldi va ko'k gumbazli galeriya qurilib, ziyoratxonaga Sharq tomon dan kirilishi ta'minlandi.

Maqbaraning ichki tomoni tilla suvi yugurtirilgan bo'rtma qog'oz naqshi bilan bezatilgan. Bezaklarda ishlatilgan kompozitsiyada Qur'oni Karim oyatlari islomiy, handasaviy naqshlar hamda arabiy xattotlik san'atining kaligrafik naqshlari bilan bitilgan.

Maqbaraga, shuningdek, Mironshoh Mirzo va Shohrux Mirzo ham dafn etilib, temuriylar xilxonasiga aylangan. 1449 yilda Mirzo Ulug‘bek ham shu maqbaraga, bobosining poyiga dafn etilgan.

Mustaqillik yillarida, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi va Mirzo Ulug‘bek tavalludi ning 600 yilligi munosabati bilan maqbarada katta hajmda ta‘mirlash ishlari olib borildi. XIX asr ning oxirida qulab tushgan minora va gumbazning zar qubbasi qayta tiklandi.

Maqbara uzoqdan kumushsimon-havo rangga o‘xshab ketadi. Faqat gumbaz biroz ko‘kish bo‘lib, jimirlab turadi. Binoga yaqinlashgan sari gumbazning sakkizyoqli qismida havo rang geometrik shakllar va gumbazni ushlab turadigan aylanmasi havo rangli yirik harflar bilan bir tartibda bitilgan yozuvlar aniq ko‘rina boshlaydi. So‘ngra girihning shaklini to‘ldirib boradigan ko‘k rangdagi satrlar va harflar orasida bir-biriga chirmashgnan jimjimalar ko‘zga tashlanadi. Binoga yanada yaqinroq borilsa, uning arxitekturasini qanchalik ustalik bilan ishlanganligi hayratda qoldiradi. Darchalar tepasiga o‘rnatilgan ajoyib koshinlar, maqbara poydevor qismi marmarida ishlangan nafis naqshlar diqqatni jalb etadi va go‘yo bundan nafisroq bezak yaratib bo‘lmaydigandek ko‘rinadi.

Maqbaraning tashqi tomonini bunyod qilganda gumbazga katta ahamiyat berilgan. Gumbaz ostki qismining aylanasi 15 metr, balandligi 12,5 metr bo‘lsada, og‘irligi sezilmaydi. Buning sababi shundaki, 64 qabirg‘adan iborat gumbazning vazni ajoyib ishlangan sharafa orqali mustahkam asos-aylanmaga tushadi. Gumbazning rang-barang qilib ishlanishi katta ahamiyatga ega. Gumbazda havorang ko‘proq ishlatilgani uchun bu rang gumbazning egri chiziqli qabirg‘alarida tovlanib turadi, quyoshda charaqlab, go‘yo osmonga qadalib turadi. Gumbazning usti sirli koshinlar bilan qoplangan.

UzDaily xabariga ko‘ra Samarqand shahridagi Amir Temur maqbarasi «Hamdo‘stlik durdonalari» osori-atiqalar ro‘yxatiga kiritildi. Ro‘yxat 2014 yilni turizm yili deb e‘lon qilgan MDHga a‘zo mamlakatlarning Parlamentlararo assambleyasi tomonidan tuzib chiqilgan. «Hamdo‘stlik durdonalari» ro‘yxati MDH

mamlakatlarining sayyohlik osori-atiqalari haqida ma'lumot berish va sayyohlar sonini ko'paytirishga xizmat qilishi uchun tuzilgan.

Bugungi kunda Amir Temur maqbarasiga tashrif buyuruvchilar sonidagi o'zgarish ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lmoqda:

2010-2013 yillarda maqbaraga tashrif buyurganlar soni

№	Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013
1	Jami tashrif buyurganlar	207914	188582	177018	198419
	jumladan:				
2	Chet eldan tashrif buyurganlar	36924	38145	41854	41710
3	Kattalar	76487	72467	63464	63089
4	Studentlar	28976	26601	19734	23200
5	Bolalar	65527	51370	51966	70420

2010-2013 yillarda maqbarasining daromadlari summasi

№	Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013
1	Chipta bilan kirganlar	71892000	86809000	88157200	92636000
2	Turistik firma va tashkilotlar bilan kirganlar	140303946	211313770	314111710	347625858
3	Ekskursiya	3719000	6400000	4975000	6311000
4	Foto	473760	998000	1014000	1794000
5	Video	139205	340000	535000	460000

3.2. Shoxi Zinda majmuasi va undan turizmga foydalanish

Amir Temur mashhur Shohizinda qabristonini obodonlashtirishda ham qator savobli ishlarni amalga oshirgan. Avvalambor, u bu yerdagi dahmalarning eng qadimgisi qusam Ibn Abbos maqbarasini ta'mirdan chiqardi. Qusam Ibn Abbos Payg'ambarimiz Muhammadning amakivachchasi bo'lib, aytishlaricha, u 676 yilda arab istilochilari bilan birga Islom dinini yoyish maqsadida Samarqandga kelgan. Go'yoki u namoz o'qib o'tirgan paytida kofirlar tomonidan o'ldirilgan va shu

yerga dafn qilingan. Amir Temur ana shu qabr ustiga yangi maqbara o'rnattirdi. Bu daxma har tomonlama bezatilgan bo'lib, u Markaziy Osiyo o'sha davr kulollarining eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi. Shohizinda majmuasi aslida Amir Temur va Temuriylar tomonidan qurdirilgan 20 dan ortiq maqbaralardan iborat. Bu yerda Amir Temurning hayotiyligida qurilgan maqbaralardan biri Turkon Og'a maqbarasi bo'lib, u Temurning opasi bo'lgan. Maqbaraga 1371 yilda vafot etgan Turkon Og'aning qizi, so'ngra 1383 yilda vafot etgan Turkon Og'aning o'zi ham shu yerga dafn qilingan. Bu yerda 1376 yilda Amir Temur sarkardalaridan biri Amir Husaynning onasi Tug'li Tekin, 1385 yilda Amir Temurning singlisi Shirinbeka Og'a maqbaralari ham qurilib obodonlashtirilgan.

Shohi Zinda — Samarqanddagi eng asosiy me'moriy yodgorliklardan biridir. U Afrosiyob tepaligining janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat ansambl. Ularning eng qadimiysi Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, xalq orasida Shohizinda (tirik shoh) nomi b-n mashhur. Ansambl bir-biri b-n yo'lak orqali bog'langan 3 guruh binolardan iborat. Quyi guruhdagi inshootlar Ulug'bek o'g'li nomidan qurdirilgan Abdulaziz chortog'i (1434—35), unga shim.dan Davlat qushbegi madrasasi (1812—13) tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshlar b-n nafis qo'shgumbazli maqbara (15-a.) joylashgan.

O'rta guruxdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tutu Tekin maqbarasi, Shirinbeka ot maqbarasi, uning qarshisida Temurning boshqa singlisi Turkan og'o maqbarasi, 8 qirrali maqbara, Ali Nasafiy maqbarasi kabilar.

Yuqori guruhsagi binolar: Ziyoratxona, uch qismdan iborat masjid, Xoja Ahmad maqbarasi, 1360—61 y.larda qurilgan maqbara, Tuman og'o majmuasi (1405—06), 2 ta nomsiz maqbara (14-a. oxiri)ning kiraverish devorigina saqdangan. Shuningdek, Tamg'och Bug'roxon madrasasi (11-a.), Amir Burundiq maqbarasi (14-a. oxiri) kabilardir. Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. 19—20-a.larda ansamblning yana bir necha binolari

barpo etilgan. 18-a.da vayron bo'lgan zina o'rnida 40 pog'onali g'ishtin yangi zina qurilgan.



O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 16 iyul qaroriga asosan Shohi Zinda yodgorlik majmuasida katga ko'lamdagi ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Shohi Zinda me'moriy silsilasi Markaziy Osiyoda temuriylar davri madaniyatining betakror durdonalaridan hisoblanadi. Uning shakllanishi va me'moriy taraqqiyoti xaqida talaygina jumboqlar mavjudligi bilan birga so'nggi yillarda yangi izlanishlar ham yuzaga keldi. Tarixiy ma'lumotlar bu yerda islom dini o'rinlashguniga qadar ham ziyoratgoh mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Arxeologik qazishmalar bu hududning juda qadim zamonlardan boshlab miloddan oldingi ming yillik o'rtalaridek shaharning ajralmas qismi bo'lganligini ko'rsatdi.

Shohizinda majmuasi bu Temuriy ayollarning xilxonasi hisoblanadi. Temurning opasi Turkon oqo, singlisi Shirinbeka oqo, jiyani Shodimulk oqo, malika Ulug' Sultonbegim maqbaralari qad ko'targan. Bundan tashqari Payg'abarimiz amakisining o'g'li Qusam ibn Abbosning ham qabri ustiga maqbara qurilgan. Ansamlning qurilishi Ulug'bek davrida (XV asrning 30 yillari) yakunlandi.



Shoxi Zindani Hayron qolarli darajadagi qadimiy me'moriy majmua, insoniyat tafakkurining shox asari deb aytish mumkin. U O'rta Osiyodagi mashxur me'morchilik ansambillaridan biri hisoblanadi va bir qancha maqbara va ibodat qilinadigan binolarni o'z ichiga oladi. Bu mozor **1000 yildan ortiq tarixga ega.**

Shoxi Zinda xozirgi vaqtda eng ulug' va muqaddas qadamjolardan hisoblanadi. Ansambilning maydoni 200x40m bo'lib, bu yerda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida IX-X asrlarda bu yerlar aholi yashaydigan maskan bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Bugungi kunda Shoxi Zinda katta tarixiy, madaniy va badiiy qimmatga ega bo'lgan eng noyob tarixiy yodgorlikdir.

Bu majmua 9 asrdan 19 asrga qadar shakllanib kelgan. 9 asr davomida ruxoniy va xukmdor sinflarning maqbaralari katta majmuasi paydo bo'ldi.

XI asrning o'rtasida bu yerda qabriston va dastlabki maqbara paydo bo'lgan. Qussam ibn Abbos maqbarasi ilk inshoot bo'lib, undan so'ng 11 – 12 asrlarda serxasham bezatilgan boshqa maqbaralar vujudga kela boshlaydi.

Mo'g'ullar istilosi davrida Shoxi Zindadagi XI-XII asrga oid inshootlarning ko'p qismi vayron bo'ldi. Qabriston XIV asrda qayta tiklana boshlanadi. Temur xukmronlik qilgan (1370-1405) davrda qurilish ishlari juda jadal suratda olib borildi.

Ulug'bek davrida (1409-1449) Shohi Zindada katta ishlar qilinadi.

XVI asrning 2 yarmida Shayboniy sulolasi xukmronligi davrida mamlakat poytaxti Buxoroga ko'chiriladi. Shundan so'ng Shohi Zindada xashamatli maqbara qurilmay qoladi. XVIII asrda Shohi Zinda pastki qismida ba'zi o'zgarishlar yuz beradi. XV asrga oid bu chortoq va zina buzilib ketgan bo'lsa kerak, yangi zina va chortoq quriladi

Shoxizinda ansambili Samarqand va O'rta Osiyo me'morchilik maktabi manzarali va amaliy san'atining rivoji shakillanishini o'zida mujassam etgan. O'rta Osiyolik kulol ustalarning turli xildagi qoplash usullari (yassi va sirlangan naqshlar, o'ymakorlik), rasm solish elementlarini yaratish kabi ixtirolari Shoxizinda ansambili misolida takrorlanmasdir. Kompleksning ilmiy o'rganilishi XIX asrdayoq boshlangan, keyingi davrlarda keng rivojlangan. Shoxizinda ansambilini buzulishdan saqlash va ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

Bugungi kunda Samarqandni, bu qadim va maftunkor yurtdagi betakror obidalarni, xususan Shohi Zinda tarixiy majmuasi haqida bugun butun dunyo biladi, desak xato bo'lmaydi.

Xozirda ushbu majmuaga kuniga yuzlab, hatto minglab ziyoratchilar kelishadi. Kelgan mehmonlar majmua haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lib, turli texnik vositalar orqali ziyoratgohning foto va video tasvirini olishadi.

3.3. Ruhobod va Bibixonim majmualaridan turizmga foydalanish

Ruhobod (Shayx Burxoniddin Sog'arjiy) maqbarasi. XIV asrga oid me'moriy yodgorlik. Amir Temur maqbarasining shimolida joylashgan, chorqirra shaklidagi gumbazli bino. Shayx Burxoniddin Sog'arjiyni Amir Temur o'ziga ma'naviy pir, deb qabul qilgan. Shayx Burxoniddin Sog'arjiy X asrda Somoniylar davrida yashab, avliyolikda Qutb pog'onasiga ko'tarilgan zotdir. Uning nasl-nasabi Umar ibn Xattobga borib taqaladi.

Ruhobot nomi bilan mashhur bo'lgan bu binoning qachon qurilgani aniqlanmagan. Mozorning shimoliy eshigidagi bo'rttirib ishlangan o'ymakor bezaklarga qarab, ba'zi bir tadqiqotchilar bu mozar 14 asrning 2 yarmida qurilgan deb, ba'zilar esa Temur qurgan deb hisoblashadi.

Ushbu maqbara hozirgi kunda shahrimizning asosiy ziyoratgohlaridan biri hisoblanadi



Bibixonim masjidi (XIV-XV asrlar). Amir Temur 1399-1404 yillari qurdirgan. Zilzilalar ta'sirida masjidning ko'p qismi yemirilib, faqat shimoliy-g'arbiy minoraning pastki qismi saqlanib qolgan. Amir Temurning katta xotini Bibixonim Chig'atoy ulusi xoni - Qozonxonning qizidir. U barcha malikalardan ulug' hisoblanib, "Katta xonim" yoki "Bibixonim", degan unvonga loyiq bo'lgan. Bibixonim zamonasining yuksak idrokli, tadbirli, maslahatgo'y, yetuk aql-zakovatli ayollaridan edi. Ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berib, tolibi ilmlarga homiylik qilgan, shaxsiy mablag'i hisobidan ulkan madrasa qurdirgan.



Sohibqiron Amir Temur masjid qurilishi vaqtida harbiy yurishlarda bo'lganligi bois qurilishga Saroymulkxonim – Bibixonim rahbarlik qilganligi uchun el ichida Bibixonim masjidi, deb yuritiladi.

Bibixonim jome masjidining umumiy sahni 167×109 m. bo'lib, burchaklarida baland minoralar bo'lgan va ular bizga noma'lum sabablarga ko'ra buzib yuborilgan. Hozirgi vaqtga kelib bu minoralar qayta tiklandi.

Ta'mirlanishga qadar jome masjidi bir-biri bilan bog'lanmagan 6 ta me'moriy bo'laklardan iborat bo'lgan. Masjidning hovli sahniga marmartosh taxtalar yotqizilgan.

XV asr o'rtalarida Mirzo Ulug'bek farmoniga binoan hovli o'rtasida marmar toshdan yasalgan ulkan lavh o'rnatilgan. U Qur'on o'qiladigan maxsus kursi bo'lib, dastlab asosiy bino ichida turgan 1875 yilda katta gumbazning qulashidan xavflanib, hovli o'rtasiga chiqarib qo'yilgan. Lavhning atrofi nafis hoshiyalar, muqarnaslar, o'simliksimon naqshlar va yozuvlar bilan bezatilgan.

Jome masjid i peshtoqi mahobatli bo'lib, o'rtasida kengligi 18,8 metrli ravoq mavjud. Yon tomonlaridagi minoralar peshtoqdan baland bo'lgan. Peshtoqning ichki tomonida kichikroq (ikkinchi) ravoq o'rnatilgan. Ravoqning yonlari o'ymakor marmar toshlar bilan bezatilgan. Uning ustidagi lavhasida masjidning qurilgan yili va Amir Temur shajarasi yozilgan.

Qo'sh tabaqali darvoza esa yetti xil temir qotishmasi, “ haft jo'sh ” dan yasalgan. Jome masjidi ning asosiy (mehrobli) binosi Amir Temur zamonasining me'moriy uslublari to'g'risi da ma'lumot beradi. Masjid gumbazining doira asosli sirtiga muqaddas Qur'on oyatlari bitilgan bo'lib, gumbaz feruza koshinlar bilan pardozlangan.

Jome masjidining ichki qismini pardozlashda naqqoshlik bezaklari qatorida zarhal bo'rtma gulqog'ozdan foydalanilgan. Bibixonim jome masjidida keyingi davrda ta'mirlash, tiklash ishlari amalga oshirildi.

Amir Temur jome' masjidining kunchiqar tomonida, bundan olti asrlar ilgari barpo qilingan, mo'jazgina bir me'moriy obida qad rostlab turibdi. Bu obidaning

gumbazi ostida Amir Temurning suyuqli xotini zukko, tadbirkor, oqila Katta xonim-Saroymulkxonim-Bibixonim yotibdi.



Bibixonim maqbarasi haqidagi ilk tarixiy ma'lumotlarni biz 1404 yili Samarqandga tashrif buyurgan, Kastiliya qiroli Hyenrix III ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklaridan o'qishimiz mumkin.

Bibixonim maqbarasi qurilgan davrda juda hashamatli va mahobatli bo'lgan, uning devorlari rang-barang koshinlar, naqshlar hamda Qur'ondan keltirilgan oyatlar bitilgan yozuvlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ichki tuzilishi, xuddi Go'ri Amir maqbarasidek ikki, qavatli, pastda sag'ana, tepada esa ziyoratxona bo'lgan.

Shuni aytish lozimki, ushbu maqbaraga dafn etilganlar, marmartoshlardan yo'nilgan tosh tobutlarga kumilganlar. Ushbu tosh tobutlar dastlab maqbaraning pastiga, ya'ni, sag'anaga qo'yilgan edi, sag'ananing tomi yiqilib tushganidan so'ng esa tosh tobutlar tokchalar ichiga joylashtirilgandir.

Arxeologlar dastlab shimoliy tokchada turgan tosh tobutni ochishga kirishdilar. Tosh tobutni yopib turgan tosh qopqoq ko'tarib olingach, uning ichida paxta, gazlamalarga aralashib yotgan suyaklar ko'rindi. Mumiyoqlangan suyaklar shu darajada aralashtirib tashlanganki, oyoq suyaklari bosh suyaklari bilan birga yotardi. Antropolog M.Gerasimovning aniqlashiga ushbu suyaklar 25-30 yoshli ayol kishiga tegishli ekan. Tosh tobutning qopqog'ida hyech qanday yozuvlar bo'lmaganligi uchun malikaning shaxsiyatini aniqlab bo'lmadi. Shundan so'ng

olimlar, shimoliy tokchaga qo'yilgan ikkinchi tosh tobutni ochishga kirishdilar. Bu tobutning uzunligi 1 m 90 sm, eni 47-66 sm, balandligi 37sm, bo'lib u ham yaxlit, kulrang marmartoshdan yasalgan edi. Tosh tobutning qopqog'i ochilgach, uning ichida aralash quralash bo'lib yotgan suyaklar, tuproq, paxta va gazlama qoldiqlari ko'rindi. Tobut ichidagi suyaklar shu darajada ezilib ketgan ediki, uni yoshini aniqlashni iloji bo'lmadi, faqatgina antropolog M.Gerasimov ushbu suyaklar kekxa ayol kishiga tegishli ekanligini aniqladi. Shundan so'ng, maqbaraning sharqiy tokchasida turgan tosh tobutlarni ochishga kirishildi. Bu yerda uchta tosh tobut yonma-yon qo'yilgan bo'lib, ular ham yaxlit marmartoshlarning ichini yo'nib tayyorlangan edi. Sharqiy tokchadagi uchala tosh tobutning ikkalasi bo'm-bo'sh bo'lib, faqat bittasining ichida jasad saqlangan ekan. Bu tobutdagi jasad ham titib tashlanganli uchun anchayin tartibsiz holatda yotar edi. Jasad dafn qilinishidan oldin mo'miyolangan, jasadnig yonidan bir necha taqinchoq, rayhon barglari va kafanning qoldiqlari topildi. 1941 yilda ushbu tosh tobut ochilayotganda, uning qopqog'i ustida hyech qanday yozuvlar uchratilmadi, ammo, tarixchi S.A. Lapinning yozishicha, u 1889 yili maqbaraga kirganida, ushbu tobutning usida yozuv bitilgan tosh qopqoqni ko'rganligini yozib qoldirgan. Uning yozishicha, qopqoqning ustida, Qur'ondan ko'chirilgan oyat va pastroqda esa: "Majnunning o'limidan so'ng ming yil o'tsa hamki, uning kafanidan hamon ishq dardi taraladi" degan yozuv bo'lgan. 1926 yili rassom I.Mrachkovskiy maqbarada tadqiqot o'tkazganida, bu yozuvli taxta o'g'irlanib, uning o'rniga oddiy, yozuvsiz qopqoq qo'yilganligini yozgan edi. Shu o'rinda, nega tosh tobutlardagi jasadlar titib tashlangan, uni kimlar, qachon qilishgan? - degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga javob topish uchun gapni ilgariroqdan boshlamoq lozimdir.

Samarqand me'morchilik yodgorliklarni o'rgangan arxeolog M.Ye.Massonning arxeolog Ya.Fulomovga aytishicha, Bibixonim maqbarasidagi tosh tobutlar dastlab 1871 yili Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinganidan so'ng ochilgan. Ammo, tobutlar qanday maqsadda ochilganligini M.Ye.Masson ham bilmagan.

Tosh tobutlar ikkinchi marta 1926 yili bir guruh o'g'rilar tomonidan ochilgan. O'g'rilar tobutlarni titib marhumlarni taqinchoqlarini va boshqa bezaklarini o'g'irlaganlar. Shu tufayli, tosh tobutlar 1941 yili uchinchi marta ochilganida uning ichidagi suyaklar ag'dar-to'ntar bo'lib yotardi. Bibixonim maqbarasidagi tosh tobutlarning qopqoqlarida hech qanday yozuvlar bo'lmaganligi uchun bu yerga dafn etilgan marhumlarning shaxsiyatlarini aniqlash ancha mushkul bo'ldi. Olimlar birinchi bo'lib ochilgan tosh tobutdagi malikaning shaxsiyatini aniqlay olmadilar, ammo, uni temuriylar xonadoniga mansub oliy martabali malika bo'lganligini e'tirof etdilar. Shimoliy tokchadagi ikkinchi tosh tobutga dafn etilgan marhumani Bibixonimning onasiga tegishli ekanligi aytiladi. Sharqiy tokchada joylashgan, uchinchi bo'lib ochilgan maqbaradagi eng yirik tosh tobutga dafn etilgan jasadning shaxsiyati haqida ancha bahslar bo'ldi. Shuning uchun ko'plab tarixiy manbalar o'rganildi, har xil taxminlar farazlar tahlil qilindi, antropologlar jasadning yoshini aniqladilar. Skulptor M.Gerasimov marhumaning hujjatli portretini yaratdi. Barcha dalillar, taxminlar va ilmiy xulosalar jamlanib muhokoma etilgach, tadqiqotchilar bu suyaklar Amir Temurning suyakli xotini Katta xonim-Bibixonimniki, degan qarorga keldilar.

Shu o'rinda Bibixonim shaxsiyati haqida ham o'zgina to'xtalmoq lozimdir. Tarixchilarning yozishlaricha, Bibixonim, XIV asrning 40yillarida Movorounnahrda xonlik qilgan Chig'atoy xonadoniga mansub amir Qozonxonning qizi bo'lgan. Taxminlarga ko'ra u 1341 yili hozirgi Qashqadaryo viloyatidagi Zanjirsaroyda tavallud topgan. Amir Qozonxon davlatda tartib o'rnatish yo'lida har xil qarshiliklarga uchrab 1346 yili bir guruh beklar tomonidan o'ldiriladi. Bu fojia yuz berganida Bibixonim 5-6 yoshlarda edi. U balog'atga yetgach amir Qozonxonning nabirasi Husayn-ga turmushga beradilar. 1370 yili amir Xusayn Xuttalon amiri Kayxusrav tomonidan uldirilgach, Bibixonimga Amir Temur uylanadi. U xonning qizi bo'lganligi tufayli Amir Temurning haramida Katta xonim degan unvonga ega bo'ladi. Bibixonimning go'zalligi, aql-farosati, nozik didi, keng va shafqatli qalbi haqida xalq orasida necha-necha afsonalar saqlanib qolgan.

O'sha davrda yashagan bir shoir Bibixonimning go'zalligi haqida: "Uning go'zalligini so'z bilan anglatish mushkul, chunki ul har qanday go'zal so'zdan-da go'zaldir"-deb yozgan ekan. Bibixonimni aql-farosati, mehribonchiligini Amir Temur yuksak baholar edi, shu sababli, sohibqiron oqila malikaga temuriy shahzodalarning tarbiyasini ishonib topshirgan edi. Bibixonimga tabiat ona bo'lish baxtini bermagan edi, u bor mehr-muhabbatini Mirzo Ulug'bek, Muhammad Sulton, Xalil Sulton kabi suyuqli nabiralariga baxsh etdi.

Bibixonim o'z sarmoyasidan Samarqandda ulug'vor madrasa bunyod qildi, olimlar shoirlar va me'morlarga g'amxo'rlik qildi. Arab tarixchisi Ibn Arabshohning yozishicha, uni Xalil Sultonning xotini Shodimulk yashirin ravishda zaharlab o'ldirgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugun ochilayotgan va Amir Temur hamda temuriylar davrining ulug'vor madaniy yutuqlariga asoslangan o'tmish davrlardagi bebaho yodgorliklar, O'zbekiston tasviriy san'ati va xalq ijodiyoti namunalari bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyatdir. O'zbekiston xalqi minglab yillar davomida barpo etilgan ulkan ma'naviy meros bilan faxrlanadi.

Fan va madaniyat, adabiyot va san'atning rivojlanib borishi buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan chambarchas bog'liqdir. U hukmronlik qilgan davrda me'morchilik bilan bir qatorda amaliy bezak san'ati ham yuksala bordi. Xuja Axmad, Kusam ibn Abbos, Turkan og'a, Tug'lik Tekin, Amirzoda Ali Nafasiy maqbaralari yog'och o'ymakorligi va koshin bilan jozibador qilib bezatildi.

Amir Temur davrida Samarqandni balandligi 8 metrgacha bulgan devor bilan aylantiriladi. Shaharni kesib o'tadigan Buxoro-Farg'oni yo'lini kengaytirib savdo-rastalari, timlar qurdirdi. U o'zi istilo qilgan o'lkalardagi eng mashhur me'mor va xunarmandlarni Samarqandga olib kelishi, shaharda xunarmandlarning guzar va mahallalarini vujudga keltira boshladi.

Amir Temur qurdirgan imoratlarning o'zgacha ekanligini, Samarkand va Kashkadaryo voxasini bir-biridan ajratib Turkiston tog' tizmalarida bunyod etilgan Oksaroy me'morchilik yodgorligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu obida 20 yil davomida qurilgan bo'lib, ko'kka viqor bilan qad rostlab turibdi. Oksaroy 2 ta yirik ravokdan va bu ravoklar 38 metrdan so'ng kubba shaklida birlashtirilgan. Har 2 arkning oraligi 22,5 metrni tashkil etadi.

Umuman olganda bugungi kunda turizm sohasini rivojlantirishda Amir Temur davri yodgorliklari muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli mamlakatlardan kelgan mehmonlarni hayratga solib kelmoqda.

Tadqiqot va kuzatishlarimiz natijasida mintaqaviy turizmni rivojlantirishda Amir Temur davri yodgorliklaridan foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Amir Temur davrida bunyod etilgan barcha obidalarni mukammal o'rganish va ular asosida tegishli marshrutlarni ishlab chiqish;
- Amir Temur davri yodgorliklarining reklamalarini ishlab chiqish va ularni omma e'tiboriga taqdim etish;
- Amir Temur yodgorliklarini vizual tomosha qilish imkoniyatlarini oshirish;
- Amir Temur davri yodgorliklari bo'yicha maxsus sayt yaratish kabi masalalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1993.
2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi qonuni. 1999 y. 20 avgust.
3. Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – 110 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi “O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-325-sonli Qarori.
5. “Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 1995 yil 2 iyun.
6. Birjakov M.B. Vvedeniye v turizme. Izd. 9-ye, pererab. i dop. – SPb.: Gerda, 2008. – 576 s
7. Durovich A.P. Reklama v turizme. – Mn.: “Novoye znaniye”, 2003.-254 s.
8. Ibodullayev N.E. O'zbekistonning turistik resurslari –Samarqand: SamISI, 2008. -114 b.
9. Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. Samarqand: SamDU, – 2005. -131 b.
10. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H. Turizm iqtisodiyoti. Samarqand, Sam-ISI, 2007. -219 b.
11. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. T.: Iqtisod va moliya”. 2008.- 262 b.
12. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma – S.: SamISI, 2010 y.

13. Mamatqulov X.M, Bektemirov A.V, Tuxliyev I.S, Norchayev A.N. Xalqaro turizm.–T.: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” nashriyoti, 2009. - 192 b.
14. Usmonov M.R. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari. Geografiya fanlari nomzodi. Dis.avtoreferati, -T.:O‘zMU, 2003. –25 b.
15. SH.A.Axadov. T.S.Egamov “Amir Temur va temuriylar davrining intellektual salohiyati» o‘quv qo‘llanma Samarqand 2004 y.
16. SH.M. Uljayeva «Amir Temur saltanatida milliy davlatchilikning rivojlanishi» dissertatsiya avtoreferati Toshkent 2008 y.
17. U.Sanaqulov “Amir Temur hayoti bilan bog‘liq tarixiy lavhalar” (O‘zbekiston tarixi bo‘yicha maqolalar to‘plami) Samarqand 2011 y.
18. G‘.Qudratov, M.Xoshimov va boshqalar “Samarqand va sohibqiron” risola Samarqand 2007 y.
19. “O‘zbekturizm” MK ma’lumotlari.

Internet saytlari

1. www.world-tourism.org
2. www.unwto.org
3. www.wttc.org
4. www.travel-library.com
5. www.uzbekturizm.uz
6. www.stat.uz
7. <http://muslim.uz>
8. <http://e-tarix.uz>